

Shartnoma-hisob to'lovi № 07-082/t

Toshkent shahri

2023 yil 11.12.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining «Madaniyat va ma'rifat» telekanali davlat muassasasi (bundan buyon «IJROCHI» deb yuritilib) nomidan nizom asosida ish ko'ruchchi direktori V.Luqmonov bir tomonidan va
SPVU (bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritilib) nomidan nizom asosida ish ko'ruchchi **XB Yrysod** ikkinchi tomonidan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA SHARTLARI

1. «Ijrochi» «Buyurtmachi»ning **10 daqiqadan** iborat bo'lgan tijorat lavhani **“Umr daftari”** ko'rsatuvida kechki dasturlarda efirga uzatishni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. «Buyurtmachi» “Ijrochi”ga shartnomaning 1.4.-bandida ko'rsatilgan mablag'ni 30 foiz to'lovni oldindan amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.
- 1.3. Efirga uzatiladigan tijorat lavha to'g'risida ma'lumot:

Ish, xizmat va mahsulot turlari	O'lechov birligi	soni	Jami daqqa	1 daqqa narxi	Umumiy narxi QQS siz
Ko'rsatuvsda tijorat lavhani efirga joylashtirish (prime time)	daqqa	10	10	1 000 000	10 000 000
	marta	1			

1.4. Shartnomaning umumiy bahosi **10 000 000 (O'n million)** so'mni tashkil etadi.

1.5. Taraflar buyurtmani efirga joylashtirishdan uch kun avval o'rnatilgan tartibda media-reja tasdiqlaydi va mazkur media-reja asosida efirga uzatiladi.

2. SHARTNOMA TO'LOV SHARTLARI

- 2.1. «Buyurtmachi» shartnomaning 1.4. bandida ko'rsatilgan mablag'ni 30 foiz miqdoridagi qiymatini shartnoma imzolanganidan so'ng uch bank ish kuni mobaynida va qolgan 70 foizini ish bajarilgandan so'ng, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va electron hisob-faktura imzolanganidan keyin uch bank ish kunida to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 2.2. Buyurtma «Buyurtmachi» tomonidan to'lagonli ravishda tasdiqlangan yozma ko'rsatma asosida taqdim etilib, dastlabki to'lov shartnoma 1.4. bandida ko'rsatilgan umumiy bahoning 30 foiz miqdoridagi qiymati telekanal hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng «qabul qilingan» deb hisoblanadi.
- 2.3. «Ijrochi» tomonidan videolavha uchun telekanal hisob raqamiga 30 foiz mablag' kelib tushgandan so'ng efirga uzatiladi.
- 2.4. «Ijrochi» xizmatlarni ko'rsatib bo'lganidan so'ng, «Buyurtmachi»ga xizmatlar bajarilganligi to'g'risidagi dalolatnoma va hisob faktura (solishtirish dalolatnomasi va/yoki boshqalar) taqdim etadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATI VA JAVOBGARLIGI

- 3.1. «Buyurtmachi» «Ijrochi»ga buyurtmani tayyorlash uchun bergen dalillar yuzasidan barcha javobgarlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
- 3.2. «Buyurtmachi» agarda taqdim etilgan yozma ko'rsatmaga tijorat lavhasi tayyorlanib, efirga berilguniga qadar o'z vaqtida o'zgartirish kiritmasa yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan buyurtmadan bosh tortsa, u «Ijrochi» tomonidan ish jarayoni uchun sarf etilgan jami xarajatni qoplaydi.
- 3.3. «Ijrochi» shartnomada belgilangan mablag'larning hisob raqamiga kelib tushishi «Buyurtmachi» tomonidan bir oy muddatda ta'minlanmasa, tuzilgan shartnomani bir taraflama bekor qilish huquqini saqlab qoladi.
- 3.4. «Ijrochi» «Buyurtmachi»ga shartnoma shartlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolar, tijorat narxlarining o'zgarishi haqida 3 (uch) ish kuni mobaynida xabar berishi kerak, «Ijrochi» tomonidan «Buyurtmachi»ga xabarnoma taqdim etilganidan so'ng yangi tarif asosida ish yuritiladi.
- 3.5. «Ijrochi»ning Reklama-tijorat xizmatlari narxlariga o'zgarishlar kiritilgan taqdirda, «Buyurtmachi» shartnoma asosida belgilangan mablag'ni 100% miqdorida «Ijrochi» hisobiga o'tkazgan bo'lsa, qayta hisob-kitob amalga oshirilmaydi. Agarda belgilangan mablag' to'liq o'tkazilmagan bo'lsa, yangi tarif asosida qayta hisob-kitob amalga oshiriladi.
- 3.6. SHartnoma muddati tugagan va Reklama-tijorat xizmatlari ko'rsatilgan kundan boshlab «Buyurtmachi» tomonidan mablag'ni ?aytarish haqidagi iltimos va e'tirozlar «Ijrochi» tomonidan inobatga olinmaydi.
- 3.7. Xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganda, «Buyurtmachi» «Ijrochiga» har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4% miqdorida, shuningdek, kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.
- 3.8. Xizmatlarni ko'rsatish muddati kechiktirilgan taqdirda, har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun «Ijrochi» «Buyurtmachiga» majburiyatning ijro etilmagan qismidan 0,4% miqdorida, shuningdek, ko'rsatilmay qolgan xizmatlar qiymatining 50% dan oshmaydigan miqdorida penya to'laydi.

4. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR.

- 4.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviyharakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
- 4.2. Taraflar shartnomadagi korrupciyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

4.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlari yuzasidan qonunga g'ilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.

4.4. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shahslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorat ostidagi boshqa shahslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

5. FORS - MAJOR VAZIYATLAR

5.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlarini to'lq yoki qisman ijro eta olmaslik vaziyatlari - fors-major holatlari yuzaga kelganligi tufayli bajara olmasalar: bu holda ularning hech qaysi biriga e'tiroz bildirilmaydi, majburiyatlarni ijro etish muddati bu kabi vaziyatlari va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda ortga suriladi.

5.2. SHartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etishga imkon bo'l'magan tomon, majburiyatlarning ijro etilishiga to'sqinlik qiluvchi vaziyatlari sodir bolgani yoki tugaganligi haqida ikkinchi tomonga bildirishi kerak. Tegishli vakolatli idora tomonidan «Ijrochi» yoki «Buyurtmachi»ga berilgan ma'lumotnomma, yuqorida ko'rsatilgan vaziyatlari mavjudligining ishonchli isboti hisoblanadi.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. SHartnoma munosabatlari yuzasidan kelib chiqqan nizolar muzokara orqali tomonlarning kelishuvni yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga kelinmaganida qonunda belgilangan tartibda «Ijrochi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud tomonidan hal etiladi.

6.2. Mazkur shartnomada qisman yoki to'la ravishda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan hal qilinadi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Mazkur shartnoma doirasida tayyorlangan teleradiodasturlar buyurtma asari hisoblanadi. Shu sababli «Ijrochi» ularga nisbatan, jumladan, ulardan foydalanishga (muddatsiz) nisbatan bo'lgan mutlaq mulkiy huquqlarini «Buyurtmachi»ga beradi.

Mazkur shartnomaning amal qilish muddati tugagach, taraflarning qo'shimcha kelishuviga muvofiq o'rnatilgan tartibda shartnomaning muddati uzaytilishi yoki yangi shartnoma tuzilishi mumkin.

7.2. Mazkur shartnomaning biron-bir bandi o'z kuchini yo'qotsa, buning natijasida butun shartnoma o'z kuchini yo'qotmaydi.

7.3. Mazkur shartnoma taraflarning har biri uchun bir nusxadan, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, ikki nushada tuzildi. Ushbu shartnomaga barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar, ular yozma shaklga ega bo'lib, har ikki tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsagina haqiqiy hisoblanadi.

7.4. SHartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar majburiyatlarini to'la bajargunga qadar, 2023 yilning 31 dekabrigacha kechikmagan muddatgacha amal qiladi.

8. Taraflarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari:


"IJROCHI"

«Madaniyat va ma'rifat» telekanali DM
100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 69.
O'z.Resp. Moliya vazirligi g'aznachiligi
Markaziy bank Bosh boshqarmasi HKKM
r/s 2340 2000 3001 0000 1010
MFO 00014, INN 201 122 919
sh/hr 400 110 860 262 777 084 200 137 004
INN 207 158 378 OKED 60200
Tel: 71 214-18-18

Direktor:

MTRK Reklama va marketing
bo'limi boshligi
Bosh hisobchi
Reklama va marketing
Bosh yuriskonsult

"BUYURTMACHI"



Katto yuriskonsult
N. Sereet

J. Eshmamatov

006190



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MADANIYAT VA MA'RIFAT TELEKANALI"

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MADANIYAT VA MA'RIFAT TELEKANALI"

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

14.08.2012

006190-09

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

207158378

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Davlat muassasasi

Joylashgan joyi:

Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A.NAVOIY KO'CHASI, 69-UY,

Guvochnoma:

Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxaidan o'lказувчи organning to'liq nomi):

